Uzbekistan Airways “Balttour” xalqaro turizm ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda

2023 4 Fevral

2023-yilning 3-5-fevral kunlari “Uzbekistan Airways” AJ aviakompaniya xizmatlarini rivojlantirish va ommalashtirish, shuningdek, aviaqatnovlarda xorijlik sayyohlarni ko‘paytirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar doirasida Latviya poytaxti Riga shahrida o‘tkazilayotgan “Battour-2023” xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda.

“Balttour” xalqaro turizm ko‘rgazmasi sayohatchilarga yo‘nalish tanlash va sayohatlarni rejalashtirishda, turizm sohasi mutaxassislariga esa yangi aloqalar o‘rnatish va hamkorlikni kengaytirishda yordam beradi.

Mazkur tadbir Uzbekistan Airways’ning Boltiqbo‘yi mamlakatlari bozoridagi mavqeini mustahkamlash va parvozlar sonini oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha sayyohlik agentliklari va operatorlari bilan muzokaralar olib borish uchun yaxshigina platforma vazifasini o‘taydi.

Ko‘rgazmaning birinchi kunidayoq Uzbekistan Airways stendi turizm sohasidagi ishbilarmon doiralar hamda turistlarning e’tiborini tortdi.

Ko‘rgazmaga tashrif buyuruvchilar va mehmonlarga Uzbekistan Airways xizmatlari va imkoniyatlari, O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati haqida to‘liq ma’lumot berildi.

Eslatib o'tamiz, Toshkentdan Riga shahriga parvozlar haftasiga ikki marta dushanba va juma kunlari amalga oshiriladi.